



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-noyabr

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,3 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,2 %ga o'sdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)**



Viloyatning barcha hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Baxmal tumani (11,4 %ga), Jizzax shahri (10,0 %ga), Mirzacho'l tumani (6,1 %ga), Paxtakor tumani (8,3 %ga) va G'allaorol tumanida (6,2 %ga), nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Zafarobod tumanida (0,8 %), Arnasoy tumanida (2,7 %ga) kuzatildi.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri (26,8 %), Sharof Rashidov tumani (13,8 %), Zomin tumani (11,2 %), Baxmal tumani (10,4 %) va G'allaorol tumani (8,8 %) ko'rsatkichi bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 5,3 %ga oshib, 2947,0 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-noyabr oylarida 2368,4 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax shahri (6094,0 ming so'm), Paxtakor tumani (3034,8 ming so'm) Zomih tumani (2786,6 ming so'm) va Mirzacho'l tumanida (2850,3 ming so'm) kuzatildi. Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 79,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 9,3 %ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,0 %ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Jizzax viloyati	2 947,0	105,3
<i>shahar:</i>		
Jizzax	6 094,0	108,5
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2 486,4	101,3
Baxmal	2 729,4	109,2
G'allaorol	2 078,7	104,2
Sharof Rashidov	2 592,6	103,4
Do'stlik	2 750,7	103,1
Zomin	2 786,6	103,5
Zarbdor	1 817,0	102,8
Zafarobod	2 142,2	99,2
Mirzacho'l	2 850,3	103,5
Paxtakor	3 034,8	106,7
Forish	2 075,5	104,1
Yangiobod	2 032,6	103,5


KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 91,7 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiyligi tovar aylanmasi hajmining 257,8 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,6 %ni tashkil etdi.



Jami chakana savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmida eng katta ulush Sharof Rashidov tumanida 99,9 %, Zafarobod tumanida 99,4 %, Arnaso'y tumanida 99,3 %, Yangiobod tumanida 98,8 %, Forish tumanida 98,4 % va eng past ulush Jizzax shahrida 80,4 %, Baxmal tumanida 85,0 % qayd etildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1047.5 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 134.0 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Yangiobod tumanining (87,9 %), Forish tumanida (84,4 %) kamayishi kuzatildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 14,9 % ga kamaydi va 476,3 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 45,5 %ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi (foizda)



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: H.Holmatov
(0371) 230-83-45